

“UFQ” TRILOGIYASI-O’LMAS XAZINA

JDPI talabasi Tursunmurodova Diyora

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi nafaqat yozuvchi ijodida, balki o’zbek adabiyotida yangi janr hisoblanadi. Ijodining eng sermahsul davrida yozgan ushbu roman-trilogiyada yozuvchi Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o’zbek dehqonlarining front orqasida ko’rsatgan mehnat qahramonlari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muommalari haqida bahs yuritadi .

Ushbu romanda xalqimiz hayotining kichik; biroq mazmun mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko’rsatadi. Uzunligi 270 km bo’lgan Katta Farg’ona kanalining qo’l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko’rilgan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirar edi. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, kanal qazishda 160 ming kishi qatnashgan, kanal tassasida 17,8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1,7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og’ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi. Bu ulkan ishlarning ortida qo’li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to’la suronli taqdiri, orzu-amonlari bor edi.

Said Ahmad xuddi shu fidoiy insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, ular haqida bir emas uchta jozibali, lirik bo’yoqlarga boy, hayajonli kitob bitgan. Ularni jamlab, “Ufq” deb nomlagan. Darhaqiqat, roman uch kata davrni o’z ichiga olgani uchun uni roman-trilogiya deb aytamiz. Asarning dastlabki kitobi “Qirq besh kun”, ikkinchi kitobi “Hijron kunlarida”, uchinchi kitobi esa “ Ufq bo’sag’asida “ deb nomlangan.

Triologiyaning birinchi kitobida zaxmatkash xalqimizning Katta Farg’ona kanalining qurilishidagi fidokorana mehnatlari, Azizxon timsoli orqali mard va jasur o’g’lonlarning naqadar g’ururi baland ekanligi tasvirlangan. Ikkinchi

kitob “hijron kunlari” da deb nomlanib, aynan ushbu bo’limda “guruch kurmaksiz bo’lmaydi” deganlaridek, ezgu fazilatlardan yiroq timsollardan biri bo’lgan Tursunboyga ko’zimiz tushadi. Qochoq Tursunboy o’z xatti-harakatlari bilan el-yurt oldida ota-onasining boshini egdi. Onasi Jannat xolaning tortgan azob-uqubatlarini his etgan kitobxonning Tursunboyga bo’gan nafrati ortib boradi. Eldan ajralgan Tursunboy oxir-oqibat xor-u zorlikka uchradi. Bu bo’limning yana bir qahramoni Nizomjon otasi, akasi, opasi tomonidan ko’p jabr ko’radi. Bu bo’limda front ortida xizmat qilgan o’zbek xalqining mehnatsevarligi, og’ir kunda bir-biriga yelkadoshligi yoritilgan. Uchinchi kitob – “Ufq bo’sag’asida” esa urushdan qaytgan qahramonlar, mehnat frontida xizmat qilgan qo’li qadoq mehnatkashlar, taqdir zarbalaridan toblangan timsollar taqdirining keyingi hayot yo’llari tasvirlanadi.

Davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar og’ushida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar qalbi jo’shqinlik va muhabbat tuyg’ularidan yiroq emas: Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy va Zebixon... Asarda o’t-olov bo’lib yongan oshiq-ma’shuqlarning hech biriga visol nasib etmaydi. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlar yana sevgiga, sadoqatga ro’baro’ bo’lishadi, ammo birinchi muhabbat davr va sinovlar qa’riga singib ketadi...

“Ufq” romanida bayon etilgan voqealar zamirida tinchlik, urush, mardlik, sadoqat, farzandlar tarbiyasi mavzulari mujassam. Bu kitob bugun ham kitobxonlar orasida qo’lma-qo’l. Kitobxon mutolaa davomida nafaqat jonli tasvirlar orqali tarixiy ma’lumotlar bilan tanishadi, balki hayot mashaqqatlaridan saboq chiqarishga, insoniylik va muhabbat aynan qiyinchiliklar ta’sirida toblanishiga amin bo’ladi. Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta’riflaydi: “Bu kitobni (“Ufq” romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo’g’ilmasdan o’qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg’usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g’azabi, og’zidan chiqadigan har bir so’zi rost...” Darhaqiqat, ushbu asar “... odamga quvvat beradigan umid, uning boshini

“toshdan” qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”. Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo’lmasa kerak.

Foydalanilgan manbalar:

1. www.zarnews.uz sayti

2. Kitobxon.com sayti

3. www.abt.uz sayti

4. “Ufq” Toshkent-1976